



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 11-aprel, № 74 (8969)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



YIRIK LOYIHALAR VA SHERIKLIKNING USTUVOR YO'NALISHLARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jahon banki guruhining operatsiyalar bo'yicha boshqaruvchi direktori Anna Byerde boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekistonning Jahon banki bilan keng ko'lamli strategik hamkorligini yanada rivojlantirish, eng avvalo, ushbu global moliyaviy institut tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasini qo'llab-quvvatlash masalalari ko'rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Anna Byerde davlatimiz rahbariga Jahon banki prezidenti Ajay Banganing salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Keyingi yillarda sheriklik munosabatlari yuksak darajaga chiqib, salmoqli natijalar berayotgani katta mamnuuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda O'zbekiston bankning eng yirik hamkorlaridan biridir. Loyihalar portfeli 12 milliard dollardan oshdi. Jahon banki iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaning barqaror rivojini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda moliyaviy, konsultativ va texnik ko'mak ko'rsatmoqda.

Bank ko'magida xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi

loyihalar mexanizmi takomillashtirildi, ularni tayyorlashni tezlashtirish va sifatini oshirish bo'yicha yangi tartib qabul qilindi.

Kambag'allikka qarshi kurashish, eng avvalo, turizm sohasida xotin-qizlar va yoshlar uchun ish o'rinlari yaratish, xususiy sektorni va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash, davlat korxonalarini transformatsiya qilish va xususiy lashtirish kabi yo'nalishlar kelgusi amaliy sheriklikning ustuvor yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Uglerod chiqindilarini qisqartirish, urbanizatsiya va infratuzilmani modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, mamlakatimizning JSTga a'zo bo'lishiga ko'maklashish borasidagi hamkorlik rejalarga alohida e'tibor qaratildi.

Yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Uchrashuv

DAVLAT BYUDJETINI SHAKLLANTIRISHDA INSONPARVARLIK YONDASHUVINING AHAMIYATI

Kecha Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Xitoy Xalq Respublikasi Milliy audit idorasi Raisi Xou Kai bilan uchrashdi.

Suhbat chog'ida Xitoy O'zbekistonning muhim strategik sheriklaridan biri ekani, ikki mamlakat yetakchilarining ochiq va ishonchli muloqoti tufayli munosabatlar har tomonlama va uzoq muddatli hamkorlik darajasiga ko'tarilgani ta'kidlandi.

O'zbekiston – Xitoy hamkorligining dolzarb yo'nalishlari va istiqbollari, shu jumladan, parlamentlararo munosabatlarni faollashtirish, audit va moliyaviy shaffoflik sohasidagi

masalalar muhokama markazida bo'ldi.

Bundan tashqari, uchrashuvda Davlat byudjetini shakllantirishda, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish yo'nalishlarida gender yondashuvining ahamiyati masalasiga to'xtalib o'tildi. Yanada adolati va samarali iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilmalarni yaratish uchun gender jihatlarini hisobga olish zarurligi qayd etildi.

Hududlararo muloqotni rivojlantirish doirasida hamda mahalliy byudjetlarni shakllantirish jarayonida parlament nazoratini kuchaytirishga qaratilgan dasturiy loyihalarni ishga tushirishga kelishib olindi. Bu esa joylarda moliyaviy boshqaruvni yaxshilash va resurslardan yanada samarali foydalanishni ta'minlash imkonini beradi.

Uchrashuvda tomonlar erishilgan kelishuvlar O'zbekiston – Xitoy hamkorligini yanada chuqurlashtirish va ikki mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

borasidagi ishlar yuzasidan batafsil ma'lumot berildi.

Muloqot chog'ida parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish, do'stlik guruhlarini faoliyatini kengaytirish, qonun ijodkorligi, ijtimoiy siyosat, davlat boshqaruvi va mintaqalararo hamkorlik yo'nalishlarida tajriba almashish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

“Xalq so'zi”.

TAJRIBA ALMASHISH IMKONIYATLARI

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov Xitoy Xalq Respublikasi Milliy audit idorasi Raisi Xou Kai boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida ikki davlat rahbarlarining o'zaro ishonch va do'stona munosabatlari tufayli O'zbekiston hamda Xitoy o'rtasidagi hamkorlik strategik darajaga ko'tarilgani, siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik yuqori bosqichga chiqqani alohida qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev hamda Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Zsinpingning siyosiy irodasi natijasida ko'p qirrali va o'zaro manfaatli aloqalar an'anaviy do'stlik va hurmat ruhida rivojlanib, hamkorlikning barcha yo'nalishida ulkan yutuqlarga erishilayotgani ta'kidlandi.

Muloqot davomida mehmon tomoniga “O'zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati haqida batafsil ma'lumot berildi.

O'z navbatida, X. Kai iliq va do'stona munosabat uchun

minnatdorlik bildirib, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosatni, ayniqsa, qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar natijalarini yuqori baholadi.

Mehmon ta'kidicha, O'zbekistonda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi yuksak saviyada, muvaffaqiyatli o'tkazildi. Bu nafaqat mamlakat uchun, balki uning xalqaro hamkorlikdagi faoliyatida ham muhim qadam bo'ldi.

“Shuni alohida ta'kidlashim kerakki, ikki davlatning audit tizimlari o'rtasida ma'lum o'xshashliklar bor ekan. Bu esa bizga hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, o'zaro fikr, tajriba almashish va birgalikda audit tizimini takomillashtirish bo'yicha yangi imkoniyatlar ochadi. Kelgusida bu yo'nalishda qo'shma loyihalarni yo'lga qo'yish, o'zaro maslahatlashuv va malaka oshirish tizimini mustahkamlash niyatidamiz”, dedi X. Kai.

“Xalq so'zi”.

Senat qo'mitasida

Dastlab delegatsiyalar a'zolariga O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng

ko'lamli islohotlar, qonunchilikni takomillashtirish, davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash

Vikont Ueverli:

O'ZBEKISTON YETAKCHISINING DIPLOMATIYA, NIZOLARNI TINCH YO'L BILAN HAL ETISH, XALQARO HUQUQ NORMALARINI HURMAT QILISH KABI QAT'IY FIKRLARI PARLAMENTLARARO ITTIFOQ G'OYALARIGA MOS KELADI



Buyuk Britaniya Parlamenti Lordlar palatasi a'zosi, Vikont Ueverli O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 7-aprel kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi ochilishidagi nutqi haqida fikrlarini bildirdi:

E'tirof

– Prezident Shavkat Mirziyoyevning Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasidagi nutqi puxta o'ylangan va global parlament muloqotiga o'z vaqtida qo'shilgan hissdur. Uning qarashlari dolzarb xalqaro muammolarni chuqur anglashni aks ettiradi hamda

O'zbekistonning jahon miqosidagi konstruktiv rolini ta'kidlaydi. Uzoq yillik kuzatuvchi va Markaziy Osiyoning o'zgaruvchan geosiyosiy landshaftining tarafdori sifatida men davlatingiz rahbarining yetakchiligi va ko'p tomonlama hamkorlikka sodiqligini yuqori baholayman.

O'zbekiston yetakchisining diplomatiya, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, xalqaro huquq normalarini hurmat qilishni qat'iyl qo'llab-quvvatlashi Parlamentlararo Ittifoq g'oyalarga mos keladi. Uning mojaro zonalarida, xususan, Ukraina, Falastin – Isroil va Afg'onistonda inklyuziv muloqot muhimligiga urg'u berishi qisqa muddatli yutuqlardan ko'ra uzoq muddatli barqarorlikni birinchi o'rinda boshqaruvi va pragmatik, prinsipial yondashuvni namoyish etadi. Ayniqsa, O'zbekistonning Afg'onistonda yakkalab qo'ymaslik va afg'on xalqi bilan konstruktiv hamkorlik qilishga chaqiriqlari insonparvar hamda mintaqaviy

istiqbolni ta'kidlagani diqqatga sazovordir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bugungi kunning dolzarb muammosi – iqlim o'zgarishiga qaratayotgan e'tibori tahsinga sazovor. O'zbekistonning iqlim bo'yicha muloqotlarga mezbonlik qilishdagi roli, jumladan, yaqinda Samarqandda o'tkazilgan forum ushbu muhim sohada mintaqaviy yetakchilik kuchayib borayotganini aks ettiradi.

Davlatingiz rahbarining xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, yoshlarni keng jalb etish borasidagi tashabbuslari ham katta ahamiyatga ega. Uning maxsus global platforma orqali

yosh parlamentariylarning ovozi kuchaytirish va BMTning osiyolik ayollarni rivojlantirish bo'yicha rezolyutsiyasini qabul qilish takliflari inklyuzivlik va imkoniyatlarni institutsionalizatsiyalash niyatidan dalolat beradi.

Nihoyat, sun'iy intellekt etikasi bo'yicha namunaviy qonunchilikka chaqiruv o'z vaqtida bo'ldi va u muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslarning kengligi va teranligi jahon miqosida tobora ko'proq qatnashayotgan zamonaviy, islohotchi O'zbekistonni aks ettiradi.

“Dunyo” AA.
London

AMALIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO'RIB CHIQILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-aprel kuni Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri, Global o'zgarishlar instituti raisi Toni Blerni qabul qildi.

O'zbekistonning ushbu nufuzli tuzilma bilan amaliy hamkorligini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Toni Bler Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi va ko'laminu yuksak baholadi, ularni yanada ilgari surish doirasida zarur ekspert-maslahat ko'magini ko'rsatishga tayyorligini bildirdi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga yirik strategik investorlarni jalb qilish, texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish va sun'iy intellektni joriy etishni jadallashtirish, ustuvor sohalarda qo'shma dastur va loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamkorlikning boshqa asosiy yo'nalishlari sifatida qayd etildi.

Ta'kidlash joizki, Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Toni Bler tomonidan 2016-yilda tashkil etilgan institut xalqaro notijorat tashkilot hisoblanadi. U turli mamlakatlarga barqaror va innovatsion rivojlanishning yangi modellari ishlab chiqishda, iqlim o'zgarishi va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda ko'maklashadi.

O'ZA.

SAMARQAND EKOLOGIYA VA IQLIM BARQARORLIGI BO'YICHA MULOQOT MAYDONIGA AYLANDI

Iqlim o'zgarishi zamonamizning eng o'tkir muammolaridan biri. Haroratning doimiy ko'tarilishi natijasida qor qoplam qisqardi, bug'lanish kuchaydi. Qurg'oqchilikning tez-tez takrorlanishi, cho'llanishning kuchayishi qishloq xo'jaligi barqarorligini buzib, oziq-ovqat xavfsizligiga zarar yetkazmoqda. Bugun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishini insoniyat oldida turgan eng jiddiy muammolardan biri deb tan olayotgani bejiz emas.

Mulohaza

Shu bois iqlim muammosiga bag'ishlab dunyoning turli mamlakatlarida anjumanlar, sammitlar o'tkazilyapti. O'tgan haftada esa dunyo nigohi yana Samarqandga qaratildi. Sharq darvozasi hisoblangan qadimiy kentda iqlim forumi o'tkazildi. Unda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston rahbarlari, shuningdek, Yevropa Ittifoqi, BMT, xalqaro moliya institutlari va yetakchi ekologiya tashkilotlari vakillari, 80 dan ortiq davlatlar delegatsiyalari ishtirok etdi.

Sa'y-harakatlarni birlashtirishda muhim ko'prik

Ta'kidlash lozimki, BMT Bosh Assambleyasi O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshida: barqaror rivojlanish va farovonlik yo'lida mintaqaviy birdamlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasini bir ovozdan qabul qilgan. Unda O'zbekiston Prezidentining qator tashabbuslari, jumladan, Markaziy Osiyo uchun “yashil” kun tartibi va uning mintaqada barqaror rivojlanishga ko'maklashishdagi roli alohida qayd etilgan hamda Samarqandda Xalqaro iqlim forumini o'tkazish tashabbusi qo'llab-quvvatlangan. Demakki, forum ana shu tashabbusning in'ikosi bo'ldi.

Bevosita anjumanga kelsak, “Markaziy Osiyo global iqlim muammolariga duch kelmoqda: umumiy farovonlik uchun birlashish” mavzusi ostidagi forum ekologik barqarorlik, “yashil” iqtisodiy rivojlanish va iqlim barqarorligi bo'yicha muloqotni ilgari surish uchun yuqori darajadagi platformaga aylandi. Asosiy e'tibor mintaqaviy va xalqaro hamkorlikka qaratildi.



MINTAQA KASABA UYUSHMALARI HARAKATIDA MUHIM PLATFORMA

Qirg'iz Respublikasi poytaxti – Bishkek shahrida Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashining VII yig'ilishi bo'lib o'tdi. Mintaqa kasaba uyushmalari harakati va hamkorligida muhim o'rinda ega mazkur nufuzli anjumanda milliy kasaba uyushma tashkilotlari, davlat organlari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashdi.

Anjuman

Yig'ilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi bosh kotibi Murodil Jumadilide uulu, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov, Qozog'iston kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Satibaldi Dauletalin, Tojikiston mustaqil kasaba uyushmalari

Federatsiyasi raisining birinchi o'rinbosari Ismoil Fayzizoda, Turkmanistonning Lebop kasaba uyushmalari birlashmasi raisi Amangeldi Jumayev, Mo'g'uliston kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi vitse-prezidenti Bayaraa Ragchaa ishtirok etdi.



Munosabat

ISLOHOTLARGA HAMOHANG
CHORA-TADBIRLAR

Bugun axborot asrida yashamoqdamiz. Yer yuzining bu chekkasida ro'y bergan voqeilikdan sanoqli daqiqalar ichida dunyoning narigi chekkasida xabar topishadi. Shu ma'noda, yurtimizda bo'layotgan har qanday o'zgarish dunyo hamjamiyatining nigohida, desak, mubolag'a emas.



Darhaqiqat, Parlamentlararo Ittifoq 150-assambleyasining aynan O'zbekistonda o'tkazilgani ham o'ziga xos ramziy ma'noga ega. Bu O'zbekistonning demokratik boshqaruv yo'lidan ishonch bilan ilgariyotgani, xalqchil parlament tizimi va fuqarolik jamiyatining izchil taraqqiy etib borayotganidan dalolatdir. Ayni chog'da bu nufuzli tadbir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jamiyatni tomonidan tan olinayotganining yaqqol tasdiqi hamdir.

Agar e'tibor berilsa, Parlamentlararo Ittifoq faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri – inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishdir. Ayni paytda mazkur yo'nalish yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati bilan chambarchas bog'liq.

Keyingi yillarda insonning munosib yashash huquqini ta'minlash, uni ijtimoiy muhofaza qilishning eng samarali yo'llarini izlash va hayotga joriy etish borasida e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Inson huquqlarining oliy qadriyat ekanligi, "O'zbekiston – ijtimoiy davlat" degan tamoyil yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z aksini topdi.

O'z navbatida, O'zbekiston parlamentining barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishdagi faol ishtiroki, parlament darajasida inson huquqlarini himoya qilish va gender tenglik masalalarini izchil ilgari surishi hamda Yoshlar parlamenti faoliyati orqali yigit-qizlarning qonun ijodkorligi jarayonlariga keng jalb etilayotgani xalqimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Demak, bunday yirik anjumanlarning mamlakatimizda o'tkazilishi ham shu o'zgarishlar samarasidir.

Siyosatda gender tenglik va yoshlar ishtirokini kengaytirish masalalari Parlamentlararo Ittifoq faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanini inobatga olsak, ushbu sohalarida erishilayotgan yutuqlarimiz bilan faxrlanishga to'la asos bor. Bugun O'zbekistonda xotin-qizlarning qonunchilik jarayonlaridagi faol ishtirokini rag'batlantirish, yoshlarni qonun ijodkorligiga jalb etish, aholini ijtimoiy himoyalash, kambag'allikni qisqartirish, qonun ustuvorligi, inson huquqlarini ta'minlash va gender tenglikka rioya qilish borasida namunali tajriba shakllanmoqda. Zero, bu yo'nalishlar dunyodagi demokratik taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi.

150-assambleya "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" shiori ostida kambag'allikni qisqartirish, munosib mehnat, ijtimoiy integratsiya va aholining qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish kabi ko'plab dolzarb masalalar muhokamasiga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir.

Assambleyaning yalpi majlislari, ixtisoslashtirilgan organlari yig'ilishlaridagi muhokamalar, ilgari suriladigan ilg'or g'oya va tashabbuslar, qabul qilinadigan hujjatlar ayni shu masalalarga dunyo mamlakatlari parlamentlari e'tiborini qaratdi, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Abdulkhamid ESHMURATOV,
Oliy Majlis Senatining
Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga
qarshi kurashish qo'mitasi raisi.

GENDER TENGLIK SARI
NAVBATDAGI QADAM

Parlamentlararo Ittifoqning
150-yubiley assambleyasi tajribasi

Markaziy Osiyo mintaqasida ilk marotaba o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasiga yurtimiz mezbonlik qildi. E'tirof etish kerakki, bu O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar va parlamentarizmi rivojlantirish borasidagi yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirofi bo'ldi.



Nufuzli anjuman jahon parlamentarizmi tarixida yorqin iz qoldirish bilan bir qatorda, inson shah'ni, qadr-qimmatini va farovonligini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadigan xalqaro parlamentarizm tajribasini yanada rivojlantirish va milliy parlamentlar hamkorligi mustahkamlanishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Assambleyaning asosiy mavzusi – "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" bo'lib, unda 130 dan ortiq mamlakatlardan parlament delegatsiyalari ishtirok etdi.

Unda gender tenglik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Assambleya doirasida Parlamentlararo Ittifoqning yangi "Harakatlar orqali gender tenglikka erishish" kampaniyasi ishga tushirildi. Kampaniya parlament va siyosatda tenglikni ta'minlash, genderga sezgir institutlarni rag'batlantirish va genderga asoslangan zo'ravonlik

va kamsitishlarga qarshi kurashish yo'nalishlari bo'yicha 10 ta muhim harakatni targ'ib qiladi.

Ushbu tashabbuslar Parlamentlararo Ittifoqning gender tenglikka erishish va ayollarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini oshirishga bo'lgan qat'iy intilishini ko'rsatadi.

O'zbekistonda bugungi kunda gender tenglik sohasida, xususan, ayollarning siyosiy jarayondagi faol ishtirokini ta'minlash, davlat boshqaruvidagi o'rnini kengaytirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Jamiyat boshqaruvida ayollar yanada faollashib, ularning ijtimoiy va ma'naviy huquqlarini qo'llab-quvvatlashga e'tibor berilmoqda. Shuningdek, xotin-qizlar huquqlarini qat'iy qaror toptirish, taraqqiyotni ta'minlashda erkaklar bilan teng imkoniyatlar yaratilib, barcha sohada ularning tenglik darajasiga alohida e'tibor qaratilaypti.

Ta'kidlash joizki, dunyo miqyosida ham parlamentar ayollar soni oshib borayotir. Ayol deputatlar ulushi 1995-yildagi 11,3 foizdan joriy yilga kelib 27,2 foizga ko'tarilganligi fikrimizning isboti.

Mintaqaviy hamda global miqyosda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy sohalarida ortib borayotgan rolini yanada mustahkamlashda Parlamentlararo Ittifoqning ahamiyati muhim. Shu bois Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida mamlakatlarda gender tenglikka erishish borasidagi natijalarni aniq indikatorlarga asoslangan holda baholash, bu borada har bir davlat o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarishi yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlarni belgilab olishi har jihatdan to'g'ri bo'lishi anjuman minbarida bot-bot aytiladi.

Ishonamizki, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda alohida voqeeli sifatida muhratlanuvchi ushbu anjumanda qabul qilingan hujjatlar dunyoda tinchlik, millatlar va elatlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlab, barcha xalqlar farovonligiga xizmat qiladi.

Aksavli TUMISHOVA,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar,
madaniyat va sport masalalari
qo'mitasi a'zosi.

O'ZBEKISTONGA, MARKAZIY OSIYOGA BO'LGAN
ISHONCH NAMUNASI

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi Toshkentda o'tkazilgani yangi O'zbekiston siyosiy islohotlari natijalarining yana bir xalqaro e'tirofi, desak, xato bo'lmaydi.



Bu ayni paytda yangi parlamentga munosabat, uning samarali faoliyat nuqtayi nazaridan t u b d a n o'zgarigani, partiyalarga nisbatan qarashlar va jamiyatdagi siyosiy hamda parlament tafakkurining shakllanishi, qolaversa, Prezident saylovlarining xalqimiz xohish va istagi asosida o'tgani, eng asosiy siyosiy esa, Bosh qomusimizning tom ma'noda ochiq-shaffof, insonparvar jamiyat nuqtayi nazaridan yangilangani kabi jihatlarni po'xtaximizning ana shunday nufuzli

anjumanga mezbonlik qilishiga asos bo'ldi.

Shu o'rinda, 130 dan ortiq davlatlarning 1400 ga yaqin delegatlariga yo'llangan Prezident murojaati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining ovozi deb uchraganini aytish joiz. Shuning uchun ham Prezidentning dunyo tinchligini o'g'irlayotgan global muammolar haqidagi fikrlarini millionlab fuqarolar yakdillik bilan qo'llab-quvvatlamogda.

Tahlilchilarning fikricha, bugun dunyoning 100 dan ziyod hududlarida harbiy nizolar davom etyapti. Shu bois ham tarixiy murojaatda ming-minglab oilalarga ayрилиq dardini olib kirgan nizoli holatlarga alohida

urg'u berildi. Xususan, Ukraina inqirozi Prezidentning fikricha, BMT rahbarligida, amaldagi xalqaro huquq normalari asosida hal etilishi kerak. Murojaatda yana bir og'riqli nuqta – Falastin inqirozi uchun yagona yechim "ikki xalq uchun – ikki davlat" tamoyili bo'lishi shartligi bildirildi. Shuningdek, jafokash Afg'oniston xalqini o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslik zarurligiga ham e'tibor qaratilganini tahlilchilar alohida e'tirof etmoqda.

Qayta tiklanadigan energiyaga ustuvorlik berish, "yashil" texnologiyalarga o'tishni rag'batlantirish – kelajak avlodlar oldidagi majburiyatimizga aylanishi kerakligi bilan bog'liq tashabbus esa kelajak haqidagi g'amxo'rlik belgisidek yangradi, deyish mumkin.

Prezident, shuningdek, sun'iy intellekt sohasida butun dunyoda o'yin qoidalari bir xil bo'lishi lozimligini

ta'kidladiki, bu ushbu masalaning nihoyatda nozikligi bilan bog'liqdir.

Prezident Parlamentlararo Ittifoq tizimida Yoshlar parlamentlarining global platformasi kerakligiga ham bejiz e'tibor qaratgani yo'q, albatta. Eng muhimi, yangi O'zbekistonning ana shunday taklif va qat'iy talablarini dunyo eshitib, o'zi uchun xulosalar chiqarishi oddiy holga aylanaypti.

Parlamentlararo Ittifoq 150-yubiley assambleyasining Toshkentda o'tkazilishi zamirida asida O'zbekistonga, qolaversa, o'z qo'shnilari bilan birlik va birodarlik rishtalarini qayta tiklagan Markaziy Osiyo mintaqasiga bo'lgan ishonch yotibdi.

Alisher QODIROV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasidagi O'zbekiston "Milliy
tiklanish" demokratik partiyasi
fraksiyasi rahbari.

TINCHLIK VA
BARQARORLIKNI
MUSTAHKAMLASHGA
QARATILGAN CHAQIRIQ

Aprel oyi O'zbekiston va Markaziy Osiyo hayotida tarixiy voqealar bilan yodda qolmoqda. Jumladan, 3-4-aprel kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi" birinchi sammiti nafaqat mintaqamiz, balki butun dunyo diqqat-e'tiborini o'ziga qaratdi. Sammitda Prezidentimiz tomonidan so'zlangan nutq esa yuksak siyosiy yetuklik, strategik tafakkur va kelajak uchun aniq yo'nalishlarni o'z ichiga olgan mustahkam dastur namunasi sifatida qabul qilindi.

Sammit doirasida Yevropaning "Global darvoza" tashabbusi asosida 12 milliard yevrolik investitsiya paketi taklif etilgani jahon hamjamiyatining Markaziy Osiyoga, xususan, O'zbekistonga bo'lgan ishonchining ochiq dalilidir.

Davlatimiz rahbari bildirgan aniq va amaliy takliflar barcha ishtirokchi davlatlar uchun keng imkoniyatlar ochadi. Bular yangi logistika yo'laklarini shakllantirish, raqamli transformatsiya, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi dolzarb masalalarni qamrab oldi. Ayniqsa, tinchlik hamda barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan chaqirig bugungi global tahdidlar davrida katta ahamiyatga ega. O'zaro ishonch, ochiq mulokat va aniq maqsadlarga asoslangan hamkorlik zamon talabi. Davlatimiz rahbari esa aynan mana shu tamoyillarga suyanagan holda butun mintaqamiz uchun ishonchli "Yo'l xaritasi"ni ilgari surmoqda.

7-aprel kuni mamlakatimiz rahbari "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkazilgan hamda 1400 ga yaqin ishtirokchilar qatnashgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasidagi nutqida tinchlik-osoyishtalikni saqlash, taraqqiyot sari intilish va adolati ta'minlashda dunyo aholisining qatlamlari o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikning jamiyatga yetkazishi mumkin bo'lgan zararlari, ularni bartaraf etish lozimligi xususida so'z yuritdi.

Shuningdek, qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat hayotidagi o'rni, mamlakatimiz parlamenti 100 ga yaqin xorijiy hamkorlar bilan aloqalar o'rnatgani, 80 ta qo'shma do'stlik guruhlari va komissiyalari faoliyati borasida alohida to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari sammit ishtirokchilari e'tiborini bugungi kunning katta muammosiga aylangan iqlim o'zgarishlariga qaratib, bu boradagi bir qator masalalar Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro iqlim forumida ham atroficha muhokama qilingan, energiya manbalari va "yashil" texnologiyalarga o'tishni rag'batlantirish parlamentlarining muhim vazifasiga aylanishi lozimligini ta'kidladi.

Ayni chog'da xotin-qizlar huquqlarini qat'iy qaror toptirish masalasi, yoshlarning parlament faoliyati bilan bir qatorda jamiyat hayotining barcha jabhasida to'laqonli ishtiroki, har bir insonning ijtimoiy himoyaga bo'lgan huquqlarini ta'minlash, shuningdek, sun'iy intellekt sohasida tizimli hamkorlikni kuchaytirish bugungi davr talabi ekani alohida urg'uland.

Mazkur assambleya doirasida o'tgan 70 ga yaqin turli tadbir va debatlar parlamentlar oldida turgan eng asosiy vazifalar yuzasidan fikr almashish, rejalar belgilab olinishi "Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati" mavzuida o'tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasining nufuzini yanada orttiradi.

Viktor PAK,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT YO'LI BOSHQALARGA O'RNAK

Parlamentlararo Ittifoq assambleyasi dunyoning turli mamlakatlardan kelgan parlamentariylarni birlashtirgan katta platformadir. Ushbu nufuzli anjumanda millatlar o'rtasida chuqur hamkorlik va muloqot o'rnatish, dunyo miqyosida tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi bir qator masalalar hal qilindi. Mazkur yirik xalqaro tadbirda Prezidentimizning ishtirok etgani va o'z nutqida parlamentlararo hamkorlikda amalga oshirilishi zarur bo'lgan hayotiy takliflarni ilgari surgani muhim voqeeli bo'ldi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiy rivojlanish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarida global hamkorlikni kuchaytirish zarurligi haqida fikr bildirdi. Bundan tashqari, tinchlikni ta'minlash, ekologiy xavfsizlik, iqlim o'zgarishi va resurslarni boshqarish kabi global muammolar ham e'tibordan chetda qolmadi.

Prezidentimizning anjuman ishtirokchilariga qaratga "Men ham 15 yil



So'nggi yillarda O'zbekistonda ana shunday kuchli parlamentarizmi shakllantirish, uning faoliyatini takomillashtirish, m a h a l l i y K e n g a s h l a r vakolatlarini kengaytirish borasida katta ishlar bajarildi. 2023-yilda o'tkazilgan umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada parlament vakolatlari keskin oshirildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining mutlaq vakolatlari 5 tadan 12 taga, Senat vakolatlari esa 14 tadan 18 taga yetkazildi. Sud, korrupsiyaga qarshi kurash va raqobat organlari faoliyati bo'yicha Prezidentning

qator vakolatlari qonun chiqaruvchi hokimiyatga o'tkazildi. Parlamentning Hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat mexanizmlari yanada kuchaytirilgani parlament a'zolarining barchasi xalq manfaati va mamlakat osoyishtaligi uchun xizmat qilishi zarurligini anglatadi.

Hududlarda mahalliy Kengashlarning vakolatlari ham kengaytirildi. 2025-yil 1-yanvardan xalq deputatlari viloyat Kengashi raisi deputatlar ichidan saylanadigan bo'ldi, viloyat hokimlari Kengash raisligidan ozod qilindi, 2026-yildan boshlab tuman, shahar xalq deputatlari Kengashlari raislari ham mustaqil tarzda faoliyat olib boradigan bo'ldi. Hokimliklarning 33 ta vakolati mahalliy Kengashlarga o'tkazildi.

Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi bugungi kunda 38 foizga oshganligi e'tiborga molik. Mazkur ko'rsatkich Parlamentlararo Ittifoq tomonidan ham e'tirof etilib, Osiyo mintaqasida so'nggi o'ttiz yilda eng yuqori o'sish sifatida baholangan alohida mamnuniyat bag'ishlaydi.

Xulosa o'rinda aytish mumkin, yurtimizda kechayotgan demokratik islohotlar xorijiy davlatlar e'tirofiga sazovor bo'layotir, yangi O'zbekistonimizning taraqqiyot yo'li boshqa davlatlarda o'rnak va tajriba sifatida o'rganilmoqda.

Pokiza AHMEDJANOVA,
Oliy Majlis Senatining
Sud-huquq masalalari va
korrupsiyaga qarshi kurashish
qo'mitasi a'zosi.

MINTAQQA KASABA UYUSHMALARI HARAKATIDA MUHIM PLATFORMA

Tadbirda kadrlar imkoniyatini rivojlantirish, kasaba uyushmalari uchun mutaxassislar tayyorlash tizimlarini takomillashtirish, ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish kabi masalalar muhokama qilindi.

O'zbekistonda kasaba uyushmalari Federatsiyasi raisi Qudratilla Rafiqov o'z

ma'ruzasida mintaqadagi bugungi tinchlik va barqarorlik, davlatlararo hamkorlik yangicha ma'no-mazmun va mohiyat kasb etib borayotgani zamirida hududdagi davlatlar rahbarlarining birgalikdagi oqilona qarorlari, siyosiy iroda va qat'iyat yotgani, yaqindagida Xo'jand shahrida bo'lib o'tgan Qirg'iziston, Tojikiston va

O'zbekiston Prezidentlarining uchrashuvi bunga yorqin misol bo'la olishini qayd qildi. Shuningdek, yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar ham o'z yechimini topayotgani, o'zaro hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilayotgani e'tirof etildi.

Ta'kidlanganidek, Qirg'iziston hukumati tomonidan O'zbekiston kasaba uyushmalari

Federatsiyasiga Issiqko'ldan o'n gektar yer maydoni ajratilgan bo'lib, ushbu hududda xalqaro talablarga javob beradigan kasaba uyushmaning sanatoriy majmuasi qurilmoqda.

Q. Rafiqov joriy yil iyul oyi oxirida O'zbekistonda kasaba uyushmalari tashkilotlarining do'stlik festivali o'tkazilishi,

unda mintaqadagi barcha qo'shni mamlakatlar, shuningdek, turkiy tili davlatlar vakillari ishtiroki kutilayotganini mamnuniyat bilan qayd etib, ushbu tadbir qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shnichilik munosabatlari yanada rivojlantirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba

uyushmalari Kengashining VII yig'ilishi o'zaro mintaqaviy aloqalarni yanada mustahkamlash, ushbu jarayonlarda kasaba uyushmalarining o'rni hamda rolini oshirish, dolzarb ijtimoiy masalalarni hal qilishda hamkorlikda ishlash yo'lidagi muhim qadamdir.

"Xalq so'zi".

SAMARQAND EKOLOGIYA VA IQLIM BARQARORLIGI BOʻYICHA MULOQOT MAYDONIGA AYLANDI



1 Iqlim forumi qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish, suv resurslarini kompleks boshqarish, biologik xilmaxillikni saqlash va barqaror shahar taraqqiyoti kabi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha ekspert panellari, yalpi sessiyalar va siyosiy muloqotlarni taklif qildi. Muhokamaning asosiy mavzularidan biri global miqyosdagi ekologik halokatlarning yaqqol namunasi sanalmish Orol dengizi inqirozi masalasi boʻldi. Mutaxassislar va hukumat vakillari zarar koʻrgan hududlarda hamkorlik uchun olgan imkoniyatlar mavjud.

Ustuvor yoʻnalishlardan yana biri – ekotizimlar va bioxilmaxillikni tiklash. Tanazzulga uchragan yerlarni, jumladan, Orolboʻyi hududini koʻkalamzorlashtirish boʻyicha keng koʻlamli dastur – “Markaziy Osiyoning “yashil” belbogʻi” loyihasi allaqachon boshlangan. Oʻzbekiston ekologik sohada taʼlim tizimini takomillashtirish va ilmiy tadqiqotlar oʻtkazishga ham ustuvor eʼtibor qaratilmoqda.

Oʻtgan yili mintaqamizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan birinchi “Yashil universitet” ochildi, bu taʼlim maskani koʻshma tadqiqotlar oʻtkazish va innovatsiyalarni joriy etish uchun samarali maydon boʻlib xizmat qilishi mumkin. Ayni paytda Oʻzbekiston va mintaqadagi boshqa davlatlar qayta tiklanuvchi energetika salohiyatini faol kengaytirmoqda. “Yashil” energetika va iqlim sohasidagi loyihalarni amalga oshirish Markaziy Osiyoda “uglerod kreditlari” bozorini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu mexanizm korxonalariga ekologik toza texnologiyalarga investitsiyalar jalb etish imkonini beradi, shuningdek, uglerod kvotalari savdosi sohasida xalqaro hamkorlik platformasiga aylanadi. Masalan, faoliyat yuritayotgan 14 ta quyosh va shamol elektr stansiyasiga qoʻshimcha ravishda umumiy quvvati 24 ming megavatt boʻlgan 50 dan ortiq shunday loyihalarni amalga oshirish koʻzda tutilgan.

Yaqin besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgani esa “Issiqxona gazlari” chiqishini qariyb 16 million tonnaga qisqartiradi. Va bu Oʻzbekiston Parij kelishuvi doirasida “Issiqxona gazlari” chiqindisini 35 foizga kamaytirish boʻyicha oʻz zimmasiga olgan majburiyatni muddatidan oldin bajarishga imkon beradi.

Sahrolashishga qarshi kurashda istiqbolli yechimlar

Yashirishning hojati yoʻq, dunyoning koʻplab hududlarida insonlar ziroat va chorvachilikda foydalangan yerlar yaroqsiz holga kelgan, ayniqsa, oxirgi yillarda sahrolashish oqibatlari yaqqol sezilyapti. Bu hududlar orasida Oʻzbekiston ham bor.

Markaziy Osiyo – jahonda keskin choʻllashayotgan bir nechta mintaqalardan biri. Yer sahrolashsa, na dehqonchilik, na chorvachilik qilish mumkin. Natijada yashash qiyinlashadi, oziq-ovqat qimmatlashadi, xalq kambagʻallashadi, mintaqalarda nizolar ehtimoli kuchayishi ham mumkin.

Sahrolashish Oʻzbekistonning qishloq xoʻjaligida foydalanib kelinayotgan yerlarini “yutib yuborayotgani”, har yili gektarlab yer yaroqsizga aylanayotgani muammosi haqida sobiq ittifoq davridayoq bong urilgan.

Olimlar Yer sayyorasida sahrolashishning asosiy sabablari sifatida aholi sonining koʻpayib borayotgani, oʻrmon va daraxtzorlar kesilayotgani, yerlar yaylov sifatida haddan ziyod koʻp foydalanilayotgani, tuproq eroziyasi va iqlim oʻzgarishi tilga oladi va bu taʼsirlarni kamaytirishga chaqiradi.

darajaga koʻtarilishi 80 foiz qisqarishiga olib kelishi mumkin. Suv resurslarining yetishmasligi, suvdagi stress darajasi mintaqa mamlakatlarida allaqachon tang koʻrsatkichga yetgan. Bashoratlarga koʻra 2050-yilga borib suv resurslari Sirdaryoda 5 foizga, Amudaryoda 15 foizgacha qisqaradi.

Choʻllanish jarayonlari va yerning degradatsiyasi ham bizga begona emas. BMT maʼlumotlariga koʻra, oʻtgan 50 yilda mintaqa mamlakatlarida choʻllanish jarayoni bilan qoplangan yerlar miqdori 15 – 20 foizga oshgan.

Orol dengizi ham allaqachon bashariyat muammosiga aylangan. Hozirgi kunda butun jahon hamjamiyati Orol dengizi inqirozi nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki global miqyosda ham salbiy oqibatlarga olib kelayotganini taʼkidlamogda. Oxirgi 40 yil ichida dengiz oʻz maydonining 57, hajmining 80 va chuqurligining 64 foizini yoʻqotdi. Qirgʻiziston va Tojikistondagi koʻp asrlik muzliklarning qoʻrqinchli darajada tez erishi kuzatilyapti. Oʻzbekiston Orol dengizining qurishi, uning tubidan osmonga koʻtarilgan pestitsidli changlarning odamlar salomatligi, dehqonchilik va iqtisodiyotga taʼsirdan aziyat chekib kelayotganiga ancha boʻldi. Dunyoda iqlim oʻzgarishi esa dengizlar oʻta



Qalandar ABDURAHMONOV, akademik.

Oʻzbekiston Parij Bitimini imzoladi. Mazkur bitim 2018-yil 3-oktyabr kuni ratifikatsiya qilindi. 2030-yilgacha uzoq muddatli istiqbolda Oʻzbekiston Respublikasi iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash chora va harakatlarni kuchaytirishni – 2030-yilga borib “Issiqxona gazlari” solishtirma tashlamalarini 2010-yildagi darajaga nisbatan yalpi ichki mahsulot birligi boʻyicha 10 foizga qisqartirishni moʻljallamoqda.

Kelajak avlod oldidagi burch

Kelgusi 20 – 30 yil ichida iqlim oʻzgarishi insoniyatga beshta asosiy xatarni alohida urgʻulaydi. Bular sirasiga Arktika dengizidagi muzliklar va marjon riflari kabi unikal tizimlarga boʻlgan tahdidlar kiradi. Haroratning 2 darajaga koʻtarilishi bilan tahdid “ota yuqori” boʻlishi mumkin. Ummon suvi tarkibidagi kislotaga oshadi, bu esa undagi marjon va jonzotlarga xavf soladi. Harorat oshishi bilan quruqlikdagi hayvonlar, oʻsimliklar va boshqa jonzotlar balandliklar hamda qutblar sari harakat qila boshlaydi. Insonlarga taʼsiri haqida gap ketar ekan, oziq-ovqat taqchilligi eng katta xavotir uygʻotadi. Makkajoʻxori, guruch va bugʻdoy 2050-yilga borib 25 foizga kamayishi bashorat qilinadi. Yana 25 yildan keyin aholi soni 9 milliardga yetishi va shaharlar kengayib borishi ehtimoli bilan, oziq-ovqat yetishmovchiligi yanada yomonlashadi. Tropik hududlar va Antarktikaning baʼzi qismlarida baliqchilar oʻljasi 50 foizga kamayishi mumkin.

Iqlim oʻzgarishiga qarshi kurash masalasida Oʻzbekiston masʼuliyat bilan chora-tadbirlar koʻrayotganini taʼkidlash joiz. Xususan, soʻnggi yillarda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini saqlash, ekologik xavfsizlikni taʼminlash ishlariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida soʻzlagan nutqida jahon hamjamiyatini, xususan, mintaqa mamlakatlarini ekologik masalalarda, jumladan, Orol dengizining qurishi bilan bogʻliq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi saʼy-harakatlarni faol birlashtirish zarurligini taʼkidlab oʻtdi. Bugungi kunda mazkur masalalarda amaliy ishlar borayotganining guvohi boʻlib turibmiz. Birgina misol sifatida BMT shafeligida

Orolboʻyi mintaqasi uchun inson xavfsizligi boʻyicha koʻp tomonlama sheriklik asosida trast fondi tuzilishi yoki Orolning qurigan tubida oʻrmonzor tashkil etilayotgani, 1,5 million gektardan ziyod maydonlarga saksovuyl va choʻl oʻsimliklari urugʻlari sepilgani hamda koʻchatlari ekitilgani keltirish mumkin. Olib borilgan islohotlarni jahon hamjamiyati qoʻllab-quvvatlamogda.

Oʻzbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini iqlim oʻzgarishlariga moslashtirish, uglerod neytralligiga erishish va “yashil” energetika ulushini keskin oshirish strategik vazifa sifatida belgilanganini eslatib oʻtish joiz. Davlatimiz rahbarining “2019 – 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarorida atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga eʼtiborni kuchaytirish masalalari aks etgani iqlim oʻzgarishining oldini olish va unga moslashish uchun xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining barcha tashabbus va takliflari “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ekologik vaziyatni barqarorlashtirish boʻyicha vazifalar bilan hamohang. Strategiyada koʻrsatilgan vazifalarga koʻra, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 444 ta yashil bogʻ barpo etiladi. Buning uchun barcha davlat idoralari, korxonalar, taʼlim muassasalarining hududida yashil bogʻlar tashkil qilinadi. Ayniqsa, yirik sanoat korxonalari jonbozlik koʻrsatishi nazarda tutilgan. Yaʼni 112 ta yirik sanoat korxonasi uch yil davomida 30 million tup koʻchatdan iborat “yashil belbogʻ”lar barpo etishi belgilangan.

Oʻrmonlar maydonini kengaytirish borasida ham vazifalar koʻzda tutilgan boʻlib, xususan, respublikaning oʻrmon bilan qoplanganlik darajasini 8,1 foizga, Orolboʻyi mintaqasidagi oʻrmonzorlarni 1,9 million gektarga yetkazish, Orol dengizining qurigan tubida qoʻshimcha 200 ming gektar yashil maydonlarni barpo etish maqsad-vazifalari ifodalangan. Bundan tashqari, iqlim oʻzgarishi salbiy taʼsirining oldini olish, choʻllanish, qurgʻoqchilik, chang-qum boʻronlari va haroratning koʻtarilishiga qarshi chora sifatida jami 400 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” – himoya oʻrmonzorlariga asos solindi. Bu esa, oʻz navbatida, turli chang-toʻzonlar koʻtarilishiga qarshi turishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir yakunlari boʻyicha Samarqand forumining yakuniy hujjati – “Yashil” rivojlanishning mintaqaviy konsepsiyasi taqdimoti qabul qilindi. U iqlim oʻzgarishi sohasida Markaziy Osiyo davlatlarining yagona mintaqaviy qarashlarini shakllantirishga asos soladi. Unda yetakchi xalqaro tashkilotlarning mintaqadagi ekologik muammolarni hal etish borasidagi yondashuvlari ham bayon qilindi.

Samarqand shahrida oʻtkazilgan forumda zarar koʻrgan hududlarda yerlarni tiklash, choʻllanishga qarshi kurashish va iqlim oʻzgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni kamaytirish boʻyicha yechimlar koʻrib chiqilgani yanada ahamiyatli boʻldi.

“Davlat sirlari toʻgʻrisida”gi Qonun:

OCHIQLIK SIYOSATINING HAYOTIY IFODASI

Axborot eng muhim manbalardan biriga aylanib borayotgan zamonaviy dunyoda davlat sirlarini himoya qilishning samarali tizimini yaratish zarur. Bu borada davlat sirlari boʻyicha qonunchilikni takomillashtirish muhim oʻrin tutadi. Bundan koʻzlangan asosiy maqsad – milliy manfaatlar va davlat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin boʻlgan maxfiy maʼlumotlar tarqalishining oldini olish.

■ Ekspert tahlili

Maʼlumki, mamlakatimizning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 33-moddasida har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi, shuningdek, har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega boʻlishi hamda davlat Internet jahon axborot tarmogʻidan foydalanishni taʼminlash uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlangan. Shu bilan birga, axborotni izlash, olish va tarqatishga boʻlgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sogʻligʻini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini taʼminlash, davlat sirlari yoki qonun bilan qoʻriqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur boʻlgan doirada yoʻl qoʻyilishi belgilab oʻtilgan.

Dastlab ushbu munosabatlar 1993-yil 7-mayda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat sirlarini saqlash toʻgʻrisida”gi Qonuni bilan tartibga solib kelingan. Mazkur qonun jami 10 ta moddadan iborat boʻlib, ular mazkur sohadagi munosabatlarning huquqiy asosini tashkil etardi. Biroq qonunda koʻpgina narmalar havoalaki boʻlib, ular batafsil yoritilmagan, aksariyat qoida va talablarni tatbiq etish mexanizmalari “yopiq” qonunosti yoki ichki idoraviy hujjatlar bilan tartibga solingan edi.

Bu esa davlat sirlari hamda ularni himoya qilish borasida jismoniy va yuridik shaxslarda tugʻilayotgan koʻplab savollarning javobsiz qolishiga olib keldi. Masalan, maxfiylashtirilishi lozim boʻlgan maʼlumotlar roʻyxati yoki maxfiylashtirilmaydigan maʼlumotlar toifalari, davlat sirlari bilan tanishishga ruxsat berish tartibi, davlat sirlari bilan bogʻliq boshqa faoliyatni

amalga oshirishda huquq va majburiyatlar, mamlakatlar oʻrtasida davlat sirlarini oʻzaro almashish tizimi avvalgi qonunda tartibga solinganam edi. Bu esa bugungi kunda qonunchilikda olib borilayotgan islohotlar hamda yuritmizda amalga oshirilayotgan ochiqlik siyosati talablariga javob bermaydi.

Shu sababli, 2024-yilning 27-dekabr kuni Prezidentimiz tomonidan “Davlat sirlari toʻgʻrisida”gi yangi Qonun imzolandi. Bu nafaqat milliy xavfsizlik bilan bogʻliq axborotni himoya qilishni tartibga soladigan, balki mamlakatimizda konstitutsiyaviy normalarga rioya etish, avvalambor, fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlashning kafolati boʻlib xizmat qiladigan muhim hujjatdir.

Yangi qonun fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va bir vaqtda davlat manfaatlari xavf ostiga qoʻyilmasligini taʼminlash tamoyili asosida ishlash chiqilgan boʻlib, uning maqsadi maʼlumotlarni davlat sirlariga kiritishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilash, davlat sirlaridan foydalanish va ularni himoya qilish bilan bogʻliq munosabatlarni tartibga solish hamda Oʻzbekiston Respublikasi manfaatlarini koʻzlab davlat sirlari bilan bogʻliq faoliyatni amalga oshirishdan iborat.

Yangi qonun 9 bob va 45 ta moddadan iborat boʻlib, unda davlat sirlariga oid asosiy tushunchalar berildi va davlat sirlarini saqlash boʻyicha yagona davlat siyosati Prezident tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Avvalgi qonunga koʻra, ushbu vakolatlarni faqat Davlat xavfsizlik xizmati belgilari edi. Endilikda esa Davlat xavfsizlik xizmati davlat sirlari sohasidagi maxsus vakolatlari davlat organi hisoblanadi. Bundan tashqari, Davlat xavfsizlik xizmati bilan birga Vazirlar Mahkamasi va davlat sirlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning bu boradagi oʻziga xos vakolatlari aniq belgilab berildi.

Shuningdek, yangi qonun bilan davlat sirlarining alohida toifalari, ularni himoya qilish sohasidagi organlarning vakolatlari, maxfiylik darajasi va maʼlumotlarni maxfiylashtirish muddati belgilandi.

Aytish joizki, avvalgi qonunda bu meʼyorlar belgilanmagan edi. Shu sababli davlat sirlaridan foydalanish va muomala qilishning huquqiy asoslari jismoniy hamda yuridik shaxslar oʻrtasida turlicha talqin qilinardi.

Yangi qonunga koʻra, davlat sirlari – davlat tomonidan qoʻriqlanadigan va sir saqlanishi lozim boʻlgan maʼlumotlar roʻyxatiga kiritilgan, oshkor etilishi Oʻzbekiston xavfsizligiga zarur yetkazishi mumkin boʻlgan davlat ahamiyatiga molik sir va (yoki) xizmat sirini tashkil etuvchi maʼlumotlar va axborotlardir. Bunda davlat ahamiyatiga ega sir – oshkor etilishi respublikaning mudofaa qobiliyatini, davlat xavfsizligi, iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan maʼlumotlar, deb aniq belgilab qoʻyildi.

Davlat sirlarini himoya qilish zarurati bilan ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolarning axborot olish va tarqatish huquqi muvozanati taʼminlandi. Endilikda maʼlumotlarni davlat sirlari jumlasiga kiritish va ularni maxfiylashtirish faqatgina maxfiylashtirilishi lozim boʻlgan maʼlumotlar roʻyxatiga asosan amalga oshiriladi. Davlat sirlari jumlasiga kiritiladigan maʼlumotlar toifasi esa yangi qonunning alohida 3-bobida toʻliq koʻrsatilgan.

Yangi oʻrnatilgan tartib, jismoniy va yuridik shaxslar, qolaversa, davlat tashkilotlarining ayrim xodimlari tomonidan bilmasdan, oʻzi xohlamagan holda davlat sirlari sohasida huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini oladi. Shuningdek, maʼlumotlarni davlat sirlari jumlasiga kiritish davlat sirlaridan foydalanuvchi tashkilotlarning oʻzlari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Bunda ushbu tashkilotlar rahbarlari maʼlumotlarni davlat sirlari jumlasiga kiritish toʻgʻrisidagi oʻz qarorlari uchun shaxsan javobgar boʻladi.

Yangi qonun bilan davlat sirlarini tashkil etuvchi maʼlumotlar maxfiyligining birinchi, ikkinchi va uchinchi darajalari hamda ularga muvofiq boʻlgan “Alohida ahamiyatli”, “Mutlaqo maxfiy”, “Maxfiy” griflari ham belgilab qoʻyildi. Bunda davlat sirlarini tashkil

uzoq joylashgan mintaqada ham suvsizlik, sahrolashish va chang boʻronlari kabi holatlarni kuchaytira boshlagan.

Iqlim oʻzgarishi bilan bogʻliq oʻsib borayotgan global tahdidlarga kompleks javob qaytarish maqsadida 2015-yil 12-dekabrda Parij Bitimi qabul qilingan. Ushbu hujjat 2016-yil 4-noyabrda kuchga kirgan. Bitimning maqsadi BMT Iqlim oʻzgarishlari boʻyicha doiraviy Konvensiyasining amalga oshirilishini faollashtirish, global oʻrtacha haroratni industrialashtrishgacha (1750-y.) boʻlgan davrdagiga nisbatan 2 darajaga saqlab turish hamda haroratning Selsiy boʻyicha 1,5 darajagacha koʻtarilishini cheklashga harakat qilishdan iborat. Bu 2050-yilga borib “Issiqxona gazlari” global ajratmalarini 40 – 70 foizga kamaytirishni va 2100-yilga borib um 0 yoki manfiy koʻrsatkichga yetkazishni talab etadi.

Taʼkidlash joiz, 2017-yil 19-aprel kuni BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida

etuvchi maʼlumotlarni maxfiylashtirish muddati davlat ahamiyatiga ega boʻlgan sir uchun 30 yildan, xizmat sirlari uchun 10 yildan oshmasligi kerak.

Yangi qonunning asosiy afzalliklaridan yana biri shundaki, unda axborotni tasniflashning shaffof tizimi yaratildi, davlat sirlarini himoya qilish va davlat sirlaridan foydalanishga doir ruxsatnoma berish jarayonlari optimallashtirildi. Bunda turli sohalarida davlat sirlariga taalluqli maʼlumotlar roʻyxati keltirilgan, maʼlumotlarni davlat sirlariga kiritish tartibi va tamoyillari, ularni sir saqlashning asoslari hamda muddatlari, shuningdek, sir saqlanmaydigan maʼlumotlar toifasi ham aniq va ravshan belgilab qoʻyilgan. Yangi qonunga koʻra, davlat sirlariga kiritilgan maʼlumotlar va ularning tashuvchilari qonuniylik, asoslilik va kechiktirmaslik tamoyillari asosida sir saqlanadi.

Shu bilan bir qatorda, fuqarolarga axborotdan foydalanishga doir cheklavlar va bu sohada davlat organlarining harakatlari ustidan shikoyat qilish imkonini beruvchi shaffof mexanizm yaratildi. Bu oʻrinda eʼtibor qaratish lozim boʻlgan jihat shundaki, fuqaro va tashkilotlar yangi qonun bilan oʻrnatilgan tartibga rioya etgan holda maʼlum bir maxfiy maʼlumotlardan foydalanishi mumkin. Yaʼni axborotdan foydalanish boʻyicha faqatgina tegishli “cheklav”lar mavjud, butunlay “taqiq” emas.

Yangi qonunda sir saqlashdan chiqarish asoslari va meʼyori, ruxsatnoma berish tartibi va talablari hamda rad qilish asoslari ham belgilab qoʻyildi. Shuningdek, unda davlat sirlariga egalik, foydalanish va tasarruf etish, ularni uzatish tartibi, davlat sirlarini himoya qilish talablari, himoya tadbirlarini moliylashtirish manbalari ham belgilandi.

Yana shuni aytish joizki, yangi qonun ancha keng qamrovli boʻlib, unda davlat sirlariga oid tushunchalar va maxfiy axborot turlari toʻlaqonli bayon etildi

“Davlat sirlari toʻgʻrisida”gi Qonun u rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran uch oy oʻtgach, yaʼni 2025-yilning 29-martidan kuchga kirdi, 1993-yil 7-mayda imzolangan “Davlat sirlarini saqlash toʻgʻrisida”gi Qonun esa oʻz kuchini yoʻqotdi.

Murodjon MIRSAIDOV,
huquqshunos.

Oʻzbekistonda oʻtgan sakkiz yil mobaynida qariyb 500 ming xonadonli uy-joylar barpo etildi.

SUN‘IY INTELEKT

TASHXIS QO‘YADI VA DAVOLAYDI

Ilm-fan rivojlangani sari dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida iqtisodiyot, sanoat, ta‘lim, tibbiyot, turizm, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarida sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ko‘lami tobora kengayib bormoqda.

XX asrning 80 – 90 yillariga kelib tadqiqotchilar boshqa sohalarida bo‘lgani kabi sog‘liqni saqlashda ham sun‘iy intellekt tizimlarini yaratish va amaliyotga tatbiq qilish zarurligi haqida o‘ylay boshlashdi. Dastlab “sun‘iy neyronlar”, “Bayes tarmoqlari” kabi yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Ko‘plab davlatlar tibbiyotga sun‘iy intellektni joriy etish dasturiga qo‘shilishdi va 2002-yilga kelib bu o‘z natijasini bera boshladi.

Ilm-fan odimlari

Bugungi kunda olimlar tibbiyotda sun‘iy intellektni qo‘llash bo‘yicha juda katta tajribalarni amalga oshirmoqda. Bu borada, ayniqsa, AQSH, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Hindiston kabi davlatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar tibbiyot sohasini rivojlantirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ham sog‘liqni saqlash tizimiga raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni joriy etishga bo‘lgan ehtiyoj nihoyatda katta. Shu jihatdan, davlatimiz rahbari tashabbuslari asosida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida barcha sohani raqamlashtirish hamda mamlakatda haqiqiy axborot jamiyatini barpo etishga e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Prezidentimizning 2020-yil 5-oktyabrda Farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Unda belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning eng muhim shartlari sohaning moliyaviy ta‘minoti va aholining raqamli savodxonligini kuchaytirish, hududlarni va tarmoqlarni raqamlashtirish, raqamli infratuzilma, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2024-yil 14-oktyabrda “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari ko‘pgina sohalar qatori tibbiyot va farmatsevtika tarmoqlarini ham zamon talablari asosida modernizatsiya qilishga keng yo‘l ochdi.

Tibbiyotga sun‘iy intellektning kirib kelishi raqamli tasvirlarni skanerlashda, ya‘ni kompyuter tomografiyasini, yurak urish tezligini tahlil qilishda,

kasallik xavfi oshirishni aniqlashda, dori vositalarini yaratishda, inson omilisiz operatsiyalar o‘tkazishda (robototexnika) o‘z natijalarini bermoqda. Robototexnika va sun‘iy intellekt sohalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu ikki fanning integratsiyasi tibbiyotda ko‘pgina muvaffaqiyatlarga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham tibbiyotning rivojlanishida bu integratsiya ta‘sirini yaqqol ko‘rish mumkin. Ilk bor 2022-yili Toshkentda murakkab jarrohlik operatsiyalari robotlar yordamida o‘tkazildi. Hozirgi kunda bu innovatsion texnologiya jarrohlikdagina emas, tibbiyotning barcha jabhasida faol qo‘llanila boshlandi.

Samarqandda ham robotlar yordamida jarrohlik amaliyoti bir necha marta o‘tkazildi. Mazkur yangilikning afzalliklari ko‘p. Masalan, operatsiya o‘ta yuqori aniqlikda bajariladi, jarayon xavfsizligi ta‘minlanadi, shifokorga inson tanasining eng murakkab qismlari hamda kasallikning eng og‘ir darajalarida ham erkin ishlash imkonini beradi. Maxsus dastur yordamida murakkab amaliyotlar chog‘ida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan jarrohlik xatoliklarning oldi olinadi.

Ushbu yangi jarrohlik texnologiyasi nisbatan xavfsiz va kaminvaziv bo‘lib, minglab bemorlar hayotini saqlab qolish mumkin. Ushbu usulning ijobiy tomonlari ham ko‘p. Bemor uchun afzalligi shundaki, operatsiya uning tanasidagi bir nechta kichik kesmalar orqaligina o‘tkaziladi. Bu estetik jihatdangina afzal bo‘lib qolmay, jarohat o‘rni bitishida ham kamroq vaqt talab etadi. Qolaversa, qon yo‘qotish, og‘riq, infeksiya xavfi kabi operatsiyadan keyingi asoratlarni sezilarli darajada kamayadi. Ushbu turdagi jarrohlik aralashuvidan so‘ng tiklanish jarayoni ancha tez kechadi, bu esa – shifoxonaga yotgach, bir



necha kun o‘tib, odatiy hayot tarziga qaytish imkoni demakdir.

Bugun tibbiyotda neyron tarmoqlaridan ham keng foydalanilayotir. Neyron tarmoqlari tibbiyotda turli xil usullarda qo‘llanilishi mumkin. Masalan, bemor “bosh og‘rig‘i”, “yuqori isitma”, “titroq” so‘rovini yuboradi. Sun‘iy intellekt boshqa millionlab katalarni tahlil qiladi va ularlarga tashxislar asosida so‘rovni yuborgan odamning kasalligini juda tez topadi. Bugungi kunda neyron sistemasi asosida tibbiyot uchun ko‘plab texnologiyalar ishlab chiqilgan va ularning ba‘zilari dunyo bo‘ylab klinikalarda faol qo‘llanilmoqda.

2018-yilda olimlar tomonidan jarrohlik jarayonida arterial bosimning anomal pasayishi yoki gipotoniyani oldindan bilish algoritmi ishlab chiqildi va bir necha tadqiqot natijalari e‘lon qilindi. Bu jarayonda aynan sun‘iy intellekt gipotoniyaning bashorat algoritmini tayyorlashda yordam berdi. Tadqiqotchilar bu algoritim operatsiya vaqtda asoratlarni ehtimolini kamaytirishini sun‘iy intellekt yordamida aniqlashdi.

Teri saratonini erta aniqlashda ham sun‘iy intellekt muhim natijalar berayotir. AQSH, Fransiya, Germaniya olimlari sun‘iy intellekt yordamida neyron sistemasi teri saraton kasalligini aniqlash uchun tasvirlarni oldindan topishga o‘rgatishdi. Mazkur dastur 95 foiz holda teri saratonini to‘g‘ri topib, erta diagnoz qo‘yish imkonini berdi.

Ko‘pgina rivojlangan davlatlarda sun‘iy intellekt orqali homiladagi patologiyalarni aniqlash keng yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, olimlar tomonidan bu patologiyalar inson omili va boshqa vositalar orqali aniqlanishi imkonsizligi e‘tirof etilgan.

Dunyo klinik tadqiqotlarida “CAR-T” hujayra terapiyasi kabi maxsus davolash usullari sun‘iy intellekt bilan ko‘proq amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, takrorlanuvchi saratonda qo‘llaniladigan ushbu usul bilan davolash jarayonlari bemorlar uchun yanada samarali bo‘la oldi. “CAR-T” – hujayra terapiyasining

innovatsion usuli bo‘lib, bunda bemorning o‘ziga tegishli T-limfotsitlar o‘simta hujayralarining ma‘lum bir turini yo‘q qilishga yordam beruvchi sun‘iy yaratilgan retseptorni biriktirish orqali o‘zgartiriladi. Bu terapiyaning muhim jihati “CAR-T” hujayralari o‘simtani o‘zi topadi. Yana bir afzalligi – bu terapiya orqali kimyoterapiya samarasiz kechgan bemorlarga to‘liq yordam beriladi. “CAR-T” terapiyasi yuqori samaradorlikka ega, ammo toksiklik, jarayonning juda qimmatligi, texnologiyaning murakkabligi kabi bir qancha muammolar borligi uchun ham olimlar bu terapiyada sun‘iy intellektdan foydalanish katta afzalliklarga ega ekanligini isbotlashdi.

Umuman olganda, sun‘iy intellekt tibbiyotning barcha qatlamiga kirib boryapti. Bu orqali inson o‘zidagi yurak xurujini shifokor ko‘rigisiz aniqlashi mumkin. Sun‘iy intellekt bemorga “aqli hamshira” bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin. Ya‘ni tavsiya etilgan dorini ichishni vaqtda eslatish va dorilarning nojo‘ya ta‘sirini nazorat qilish vazifalarini o‘z zimmasiga oladi. Shuningdek, sun‘iy intellekt shifoxonalar boshqaruvida Sall-center, administrator, assistent vazifalarida ham ishtirok etmoqda.

Sun‘iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanish jahonning ko‘plab mamlakatlari uchun ustuvor vazifa qilib qo‘yilgan. Tibbiyotda shifokor amaliyoti va tajribasi inson tanasidagi u yoki bu muammoni o‘z vaqtda aniqlash uchun yetarli bo‘lmisligi mumkin. Sun‘iy intellekt orqali katta hajmdagi ma‘lumotlarga, ilg‘or ilmiy adabiyotlarga va millionlab kasallik tarixiga ega bo‘lgan neyron sistemasi har qanday holatni tezda tasniflab, uni boshqa bemorlardagi o‘xshash muammolar bilan taqqoslash va davolash rejasini qisqa vaqt ichida taklif eta olish qobiliyatiga ega. Shuningdek, u bemorlarning tuzalib

Albatta, ilm-fanda bo‘layotgan bu o‘zgarishlar ko‘pgina sohalar qatori tibbiyot va farmatsevtika yo‘nalishlarida ham ilmiy va amaliy yangiliklarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda 2030-yilga qadar sun‘iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish strategiyasi orqali sog‘liqni saqlash, farmatsevtika yo‘nalishlarida sun‘iy intellekt asosida faoliyat yurituvchi ilmiy laboratoriyalar tashkil etish bo‘yicha kuchli 50 talikka kirish uchun barcha shart-sharoit yaratilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa har bir sohaga innovatsiyalarni kiritish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Sun‘iy intellekt hayotimizning ko‘plab sohalaritubdan o‘zgarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agar uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri, oqilona foydalanilsa, bu orqali o‘nlab sohalarida muammolar ijobiy hal qilinib, ilm-fan yanada taraqqiy etadi.

Jasur RIZAYEV,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori, professor.



ketish potensialini bashorat qilish orqali natijalarni optimallashtiradi. Sun‘iy intellektni sohada foydalanishga tatbiq etish ma‘lumotlarni tezkor yig‘ish va qayta ishlash, murakkab operatsiyalarni inson omilisiz bajarish, diagnostikani rivojlantirish, patologiyani erta aniqlash, davolanish vaqtini qisqartirish, organizmdagi jarayonlarni tasvirlarda o‘qish orqali tashxis aniqligini oshirish kabi bir qancha afzalliklarga ega. Qolaversa, sun‘iy intellektdan dori vositalarini ishlab chiqish uchun startaplar yaratishda, protezlash jarayonida, bemorlarga masofaviy yordam ko‘rsatishda foydalanish mumkin.

Bugungi kunda robotlar orqali reabilitatsiya jarayoni ham, uzoq davom etadigan operatsiyalar ham muvaffaqiyatli amalga oshirilyapti. Bu kabi operatsiyalarning yurtimizda o‘tkazilayotgani tibbiyotimiz jadal rivojlanayotganidan dalolatdir. Sog‘liqni saqlash sohasida sun‘iy intellekt orqali yaratiladigan ijobiy qulayliklarni ko‘p davom ettirish mumkin. Eng asosiysi – bundan oqilona foydalana olish.

Sun‘iy intellekt farmatsevtika sohasiga ham kirib kelmoqda. Bitta yangi preparatni kashf qilish jarayoni yillar mobaynida davom etishi mumkin, sun‘iy intellekt orqali esa bu vazifa qisqa vaqt ichida amalga oshirilmoqda. Yangi dori vositalarini ishlab chiqishda sun‘iy intellekt katta hajmdagi kimyoviy ma‘lumotlarni tahlil qilyapti va keyingi tadqiqotlar uchun potensial faol birikmalar kashf etilyapti, yaratilgan birikmalarning organizmga ta‘siri tahlil qilinaypti. Bu esa klinik sinovlar vaqtda xavflarni kamaytirish imkonini beradi.

YANGILIKLAR xabarlar

TAFSILOTLAR

Har tomonlama manfaatli yarmarka



Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida “Hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkasi” bo‘lib o‘tmoqda.

Ikki kun davom etadigan yarmarkada poytaxt viloyatidan 300 dan ziyod sanoat korxonalari 2,5 ming turdan ortiq, shuningdek, boshqa viloyatlardan kelgan 50 nafarga yaqin tadbirkorlar o‘z mahsulotlari bilan qatnashayotir.

Tadbir doirasida viloyat hokimi va tizim mas’ullari ishtirokida ishlarimonlar uchun sayyor qabul ham tashkil etildi. Unda tijorat banklari tomonidan loyihalar uchun kredit mablag‘i ajratish, soliqlar to‘lovlar, yer-kadastr, investitsiya yo‘naltirish kabi ko‘plab masalalar yuzasidan yuzlab murojaatlar ko‘rib chiqildi. Jarayonda har bir murojaat tegishli tartibda mas’ullarga yo‘naltirildi. Ayrim murojaatlar bo‘yicha tadbirkorlarga huquqiy tavsiyalar berildi.

Ogoh etuvchi monitoring



Poytaxtimizdagi Sergeli hamda Uchtepa tumanlarida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi, Gidrometeorologiya xizmati agentligi hamda “Zamin” xalqaro jamoat fondi tomonidan havo monitoringi avtomatik stansiyalari ishga tushirildi.

“Atmosfera havosining ifloslanishi monitoringini avtomatlashtirish” qo‘shma loyihasi doirasida amalga oshirilgan ushbu tadbir natijasida shahar atrofida atmosfera havosi sifatini kompleks kuzatishga xizmat qiladigan havo monitoringi stansiyalaridan iborat “halqa” hosil bo‘ldi.

Ma‘lumotlar kunning ma‘lum qismi, mavsum va meteorologik sharoitga qarab ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasining umumiy holati hamda tendensiyalarini baholash, shuningdek, “halqa” bo‘ylab monitoring tizimi shaharning qaysi hududlari zararli moddalardan ko‘proq ta’sirlanishi mumkinligini prognoz qilish imkoniyatini yaratadi.

Bibixonim taqqan munchoq namoyishi



Temuriylar tarixi Davlat muzeyida “Tasviriy san’atda temuriylar davri ayollari siymosi” ko‘rgazmasi ochildi. Unda Amir Temur va temuriylar davrida ayollar obrazi aks etgan mo‘jaz miniatyuralar, XXI asr rassomlari tomonidan yaratilgan asarlar, XIX-XX asrlarga oid ayollar taqinchoqlari va eng asosiysi, muzeyning noyob ekspozitlaridan biri hisoblangan Bibixonimga tegishli munchoq o‘rin olgan.

Aytish joizki, qadimdan Sharqning ayollari o‘zining go‘zalligi, donoligi va jamiyatdagi o‘rni bilan boshqa xalqlar ayollaridan tubdan farq qilgan. Xususan, XIV – XVI asrlarda Amir Temur va temuriylar davri malikalari jamiyatda ilmi, aql-zakovati, donishmandligi, ma’naviy-xalqiy fazilatlarini, davlat boshqaruvi, diplomatiya va me’morchilik ishlarida faol ishtirok, ilm-fan, madaniyat hamda san’at taraqqiyotidagi o‘rni bilan alohida ajralib turgan.

Ko‘rgazma o‘z ishini davom ettirmoqda.

“Xalq so‘zi”.

NATIJA UCHUN INSONDA ANIQ REJA BO‘LISHI KERAK

Namangan tumanidagi Chag‘ir mahallasida yashovchi Islombek atrofda yashovchi havas qilib ishlash uchun Rossiyaga yo‘l olganida xayolan kattagina mablag‘ni hamyoniga joylab bo‘lgandi. Tanishlarining ko‘magi bilan Moskvadagi qurilish firmalaridan biriga joylashdi. Avvaliga hammasi sip-silliq ketayotgan edi. Falokat oyoq ostida deganlaridek, yangi tiklanayotgan osmono‘par binoning oltinchi qavatida beton quyayotgan chog‘ida oyoqg‘i to‘yib ketdi. Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatilganidan so‘ng uning oyoqlari harakatdan qolgani ma‘lum bo‘ldi. Yigirma sakkiz yoshli yigit yurtga qo‘ltiqta yotqada qaytdi.

Qishloqdagi tengdoshing

– O‘shanda hali uylanmagan dim. Ota-onamga suyanib bo‘ladigan paytimda to‘shakka mixlanib yoki butun umr qo‘ltiqta yotqada yurishdan judayam qo‘rqqandim, – deydi Islombek. – Shifokorlar umid borligini, murakkab amaliyot yordamida oyoqlarimni butlash mumkinligini va buning xarajati ham katta bo‘lishini aytishdi. Mahalla yoshlar yetakchisi Abobakir aka uyimizga kelganida unga dardimni aytдим. Ertasi kuni uning o‘zi shifoxonaga olib borib, malakali jarrohlarni bilan suhbatlashganidan so‘ng ko‘nglimga yorug‘lik kirdi. Mahalladoshlarimiz amaliyot xarajatlarining bir qismini ko‘tarishdi. Yetakchi ishning boshida turib berdi.

Jarrohlik amaliyotidan keyin Islombek Abdumajidov oyoqqa turdi. Yoshlar yetakchisi

uni tuzalganidan keyin ham tashlab qo‘ymadi. Homiylik ko‘magi bilan velopeding hadya qildi. Daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun o‘ttiz yillik muddat bilan band bo‘lmagan yoshlarga ajratilgan maydondan 20 sotix yer olib berdi. Bunga javoban mehnatini ayamagan Islombek makkajo‘xori ekip, bir mavsumning o‘zida 12 million so‘m daromad qildi...

Chag‘ir mahallasida to‘rt yildan buyon yoshlarga yetakchilik qilib kelayotgan Abobakir Tursunovning faoliyatidan keltirilgan bu misol uning o‘tgan vaqt o‘ziga yuklangan vazifaga astoydil kirishga ulguriganidan dalolat beradi. Uch mingga yaqin aholisi bo‘lgan hududning 14 – 30 yoshlar orasidagi fuqarolari 740 kishini tashkil etadi. Ko‘pchiligi uyushmagan yoshlar ekanligi inobatga olinsa, yetakchining mas’uliyati va ish qanrovi

yanada oydinlashadi. Zero, ularning har birining o‘ziga xos xarakteri, intilishi, muammolari bor.

Hayotda navqiron yigit-qizlarni yagona maqsad sari birlashtirishda ular ko‘ngliga yo‘l topib, qiziqishlari, intilishlarini, ayniqsa, iqtidorlarini to‘g‘ri yo‘naltirish kutilgan natijani berishi amalda isbotini topgan. Chag‘irda ham ijtimoiy foydali yo‘nalishlarga havasmandlar yetarli. A. Tursunov birinchi navbatda, sportga ishtiyoyi kuchli bo‘lgan o‘g‘il-qizlar bilan alohida ishlash, ularni boshqalarga o‘rnak qilib ko‘rsatishni ma‘qul ko‘rdi. Buning uchun mahallada ikkita zamonaviy sport inshooti borligi qo‘l keldi. Ularda shug‘ullanayotganlar esa 350 nafardan oshdi. Ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha natijaga ham erishildi. Xususan, iqtidorlarni aniqlashga yo‘naltirilgan “Besh tashabbus” harakatining respublika bosqichiga yetib borgan va g‘olib bo‘lganlar safida chag‘irliklar ham bor. Masalan, sport tennis bo‘yicha yaxshigina mahorat egasi Rayhona Umaraliyeva nafaqat mahalladoshlari, balki Namangan yoshlari ishonchini oqladi. Abduqodir Avazbekov milliy kurash bo‘yicha viloyat chempioni maqomiga erishdi.

– Yoshlar yetakchisining mahalladagi “yetitlik” orasida munosib o‘rni bor, – deydi “Chag‘ir” MFY raisi Muhammadali Xo‘jayev. – Yoshlar, ularning ota-onalari o‘rtasida hurmatga sazovor. Shu bois aholining katta qismi bo‘lgan yoshlar masalasida ko‘nglimiz to‘q. Migratsiyadagi fuqarolar bilan ishlashda ham yaxshi natijalarga erishyapmiz.

Darvoqe, xorijda mehnat faoliyati bilan band

bo‘lgan fuqarolar masalasida Chag‘ir yaqin vaqtgacha og‘ir hududlardan hisoblanib kelgan. Bundan ikki yil avval 90 kishi chet eldagi mehnat muhojiri sifatida qayd etilgan. Yoshlar yetakchisi ularning har birining oilasi bilan aloqa o‘rnatdi. O‘zimizda ham yetarli daromad topish mumkinligi, mavjud ish o‘rinlari to‘g‘risida olib borgan targ‘iboti tufayli mehnat muhojirlaridan 35 nafari yurtga qaytdi. O‘n ikki nafari Pop tumanida barpo etilayotgan quyosh fotoelektr stansiyasi qurilishida ishlash, ko‘ngildagidek maosh olmoqda. Qolganlari dehqonchilik bilan mashg‘ul – har biriga ajratilgan 20 sotix yerda daromad topmoqda.

– To‘rt yillik faoliyatim davrida zimmamga yuklangan vazifa naqadar mas’uliyatli ekanini bildim, – deydi Abobakir Tursunov. – Ba‘zan notinoh oilalar bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Ayrim qo‘lida hunari yo‘q, bekorchi yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solish ham oson emas. Telefonga mukkasidan ketib, na oilasi, na jamiyatga nafi tegmaydiganlar toifasi ko‘payib borayotgani og‘riqli nuqta. Bularni kunlik ish tartibimizda mahkam tutganmiz.

Mahalladagi yoshlar yetakchisi kim? Namanganning olis mahallasida mehnat qilyotgan ayni lavozim egasining tig‘iz faoliyatidan keltirilgan misollar bunga yaqin bo‘lsa, ne ajab! U o‘z tengdoshlariga jaykadosh, hududda sog‘lom ijtimoiy muhit barqarorligini ta‘minlashda faol tashkilotchilardan. Asosiysi, bunday yoshlar tengdoshlariga ibrat bo‘lmoqda.

Qudratilla NAJMIDDINOV
 (“Xalq so‘zi”).

So‘nggi yillarda mamlakatimizning turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetdi.



MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G 442. 13 374 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qo‘g‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma‘lumotlarni yuktib olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e‘lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatchi kelgan qo‘lyozmalar taqiz qilamaydi va ummifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun olisnami rasmiylashtirgan tashkiloti javobgar.
Gazeta tahiriyyat kompyuter markazida teritli hamda operator M. Begmatov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifali chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir X. Norboyev.
Musahhib S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 21.10 Topshirildi – 23.55 **1 2 3 4 5 6**